

KOREYS TILIDA OT SO'Z TURKUMINING TURLARI VA YASALISHI

Ablaqulova F.A.¹

Ilmiy rahbar: Bayanxanova Iroda Furkatovna

Annotatsiya:

Mazkur maqolada koreys tilidagi otlarning leksik-semantik xususiyatlari va yasalish tizimi atroflicha yoritilgan. Maqolada otlarning gapdagi vazifasi, ularning mustaqil va tobe turlari, shuningdek, ma'nosiga ko'ra shaxs, joy, vaqt, narsa va mavhum otlarga bo'linishi misollar yordamida tushuntirilgan. Shuningdek ushbu maqolada ot yasalishining affiksatsiya, kompozitsiya, konversiya (fe'l va sifatdan ajralish) hamda xitoy iyerogloflariga asoslangan usullari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Shaxs otlari, narsa otlari, vaqt otlari, joy otlari, mavhum otlar, so'z yasalishi, qo'shma so'zlar, affikslar, xitoy iyerogloflari, tobe otlar.

Koreys tili so'z boyligining katta qismini otlar tashkil qiladi. Otlar til tizimida predmet, shaxs, joy, hodisa yoki tushunchani ifodalovchi asosiy so'z turkumi bo'lib, nutqning mazmunini aniq va to'liq yetkazishda muhim rol o'ynaydi. Har qanday tilda bo'lgani kabi, koreys tilida ham otlar nafaqat tayyor holda mavjud, balki so'z yasovchi qo'shimchalar, so'z birikmalari va morfologik usullar orqali yangi ma'nolar hosil qilib, tilning leksik boyligini yanada kengaytirgan. Shuning uchun otlarni o'rganish koreys tilida muhim ahamiyat kasb etadi.

Koreys tilida ot (명사) eng faol ishlatiladigan so'z turkumlaridan biri bo'lib, 누구? (kim?), 무엇? (nima?), 어디? (qayer?) so'roqlariga javob bo'ladi. Faol tarzda yasaladi va gapda ega, to'ldiruvchi yoki boshqa vazifalarda keladi. Barcha kelishik qo'shimchalarini (조사) o'ziga qabul qiladi. Koreys tilida ham otlar xuddi o'zbek tili kabi mustaqil va tobe otlarga bo'linadi. Gapda aniqlovchisiz ham ishlatila oladigan otlarga - mustaqil otlar (자립명사) deyiladi. Masalan: 사람, 집, 학교, 나무. Masalan: 저는 학교에 갑니다. Va gapda faqat aniqlovchi so'zlar bilan keladigan hamda shu holatda ma'no anglatadigan otlarga esa - tobe otlar (의존명사) deyiladi. Misol uchun: 것, 데, 바. Masalan: 한국어를 공부하는 것이 재미있어요. (Bu gapda tobe ot fe'lni otlashtirish vazifasini ham bajarayapdi).

Otlarni ma'nosiga ko'ra 5 ta turga bo'lib o'rganishimiz mumkin.

1. Shaxs otlari (인칭 명사) - jonli shaxslar, kasblar, qarindoshlik nomlari va olmoshlar shaxs otlarini hosil qiladi. Kim? ya'ni koreys tilida 누구? so'rog'iga javob bo'ladi. Masalan: 나, 너, 선생님, 친구... Koreys tilida olmoshlar "men"(나), "sen(너)", "u"(그) so'zlari kam ishlatiladi. Buning o'rniga ism + 씨 yoki lavozim ishlatiladi. Koreys tilida shaxs otlariga hurmat qo'shimchalari ham qo'shiladi: 1. 님 - hurmat shaklini yasovchi qo'shimcha bo'lib, kasb, lavozim, ism bilan ishlatiladi. Masalan: 선생님, 사장님, 고객님... 2. 분 - qo'shimchasi esa ko'pincha kishilik olmoshlari (의존 명사) bilan keladi. Masalan: 저분, 그분, 당신 ... Koreys tilida 너 ya'ni sen so'ziga hurmat ma'nosidagi -분 qo'shimchasi qo'shilmaydi. Buning

¹Ablaqulova Feruza Anvar qizi, Samarqand davlat chet tillari instituti Sharq tillari fakulteti koreys tili filologiyasi 2401-guruh talabasi

o'rniga 당신 yoki 그분 ishlatiladi. Shuningdek koreys tilida shaxs otlari o'ziga ko'plik qo'shimchasini (-들) ham qabul qiladi. Masalan: 학생들, 친구들, 사람들 ...

2. Joy otlari (장소 명사) - joy yoki makon nomini bildiradigan otlar bo'lib o'zbek tilida qayer? koreys tilida esa 어디? so'rog'iga javob bo'ladi. Masalan: 도서관에서 책을 읽어요. Koreys tilida joy otlari mustaqil ot sifatida qo'llanilib, ko'p hollarda qo'shimchalar bilan birga keladi. Odatda joy otlari 안 (ichida), 밖 (tashqarida), 위 (ustida), 밑 (ostida), 옆 (yonida), 앞 (oldida), 뒤(orqasida), 사이 (orasida) kabi joyning joylashuvini bildiruvchi so'zlar bilan keladi va bularni to'g'ri qo'llay olish muhimdir. Masalan: 집 안 - uy ichi, 학교 앞 - maktab oldi, 가게 옆 - do'kon yoni.

3. Vaqt otlari (시간 명사) - payt, sana, kun, oy, yil, davr, oraliq kabi umumiy holatda vaqt ma'nosini bildiradigan va o'zbek tilida qachon? koreys tilida esa 언제? so'rog'iga javob bo'ladigan otlarga vaqt otlari deyiladi. Eng ko'p ishlatiladigan vaqt otlari: 오늘, 내일, 지금, 아침, 오전, 점심, 오후, 밤, 새벽... Masalan: 아침에 항상 운동합니다. Koreys tilidagi hafta kunlari ham vaqt otlariga kiradi. Hafta kunlari, soat, sana, oy, yil bilan odatda - 에 qo'shimchasi ishlatiladi. Lekin 오늘, 내일, 어제 kabi so'zlar bilan ishlatilmaydi. Odatda vaqt otlari gapning boshida kelishi mumkin. 오늘 저는 도서관에 가서 한국어 수업을 준비합니다.

4. Narsa otlari (사물 명사) - ko'rinadigan, ushlab bo'ladigan, moddiy narsa va predmetlarni bildirib nima? ya'ni koreys tilida 무엇? so'rog'iga javob bo'ladigan otlardir. Narsa otlariga uy - rozg'or buyumlari, texnika va texnologiyalar hamda oziq - ovqatlarni kiritsak bo'ladi. Masalan: 책, 의자, 창문, 문, 휴대폰, 노트북, 사과, 밥, 우유, 빵.... Narsa otlari ko'plik qo'shimchasi -들, tushum kelishi qo'shimchasi -을/를, 이/가 kabi bir qancha qo'shimchalarni o'ziga qabul qiladi. Gapda esa ega, to'ldiruvchi va ot kesim bo'lib keladi. Masalan: 저는 책을 읽어요. (to'ldiruvchi); 책이 아주 재미있어요. (ega); 이것은 책이에요. (ot kesim).

5. Mavhum otlar (추상 명사) - bu otlar ko'z bilan ko'rib, qo'l bilan ushlab bo'lmaydigan, hissiy yoki aqliy tushunchalarni bildiradigan otlar hisoblanadi. Bu otlar ham narsa otlari singari nima? ya'ni 무엇? so'rog'iga javob bo'ladi. Masalan: 사랑, 행복, 기쁨, 분노, 걱정.... Mavhum otlarning grammatik xususiyati shundaki ular ko'plik qo'shimchasi -들 ni o'ziga qabul qilmaydi lekin nutqda hissiyotlarni kuchaytirish uchun ishlatilishi mumkin. Va gapda ega, to'ldiruvchi va kesim vazifasida kelishi mumkin. Masalan: 사랑은 아름답습니다. (ega); 저는 자유를 원합니다. (to'ldiruvchi); 제 꿈은 성공입니다. (kesim).

Shuningdek otlar bir nechta usullar bilan yasaladi. Asosiy usullari quyidagilar:

1. Qo'shimchalar yani affiksatsiya usuli orqali yasalgan otlar (접사에 의한 명사). Bunda asosan fe'l va sifat ildiziga maxsus qo'shimchalar qo'shib, yangi ot hosil qilinadi. Ko'p hollarda -이, -(으)ㄴ, -기, -개, -게, -자, -개 kabi qo'shimchalari orqali yasama otlar yasaladi. Masalan: 먹다 (yemoq) + 이 = 먹이 (ovqat), 웃다 (kulmoq) + 음 = 웃음 (kulgi), 달리다 (yugurmoq) + 기 = 달리기 (yugurish), 지우다 (o'chirmoq) + 개 = 지우개 (o'chirg'ich) va hokazo bir qancha misollar keltirish mumkin. Yuqorida aytilganidek eng ko'p

ishlatiladigan qo'shimchalardan biri -기 qo'shimchasi o'zbek tiliga "...-ish", "...-qilish" ma'nosida tarjima qilinadi va biron bir harakatni ifodalaydi, ko'pincha grammatika va topshiriqlarda ishlatiladi. -□/-음 qo'shimchalari esa "...-lik", "...ish" ma'nosida tarjima qilinib ot yasaydi. Bu qo'shimcha ko'pincha ruxiy holat yoki tushuncha bildiruvchi otlarni yasashda ishlatiladi va abstrakt ma'noli bo'ladi. -자, -가, -인 kabi qo'shimchalar esa ko'pincha shaxs yoki kasblarni hosil qiluvchi qo'shimcha bo'lib o'zbek tiliga ko'p hollarda "-chi" deb tarjima qilinadi. Masalan: 독자 (kitobxon), 연구자 (tadqiqotchi), 작가 (yozuvchi). Qo'shimchalar orqali ot yasash koreys tilida yangi so'z yaratishning assosiy usuli hisoblanadi. Ular orqali turli xil harakat, holat, sifat, shaxs yoki predmet nomlari yasaladi.

2. Qo'shma so'zlar (합성어) ya'ni kompozitsiya usuli yordamida yasalgan otlar. Bunda ikki va undan ortiq so'z birlashib yangi ma'noli otni hosil qiladi. Koreys tilida qo'shma otlar (합성 명사), asosan ikki turdagi otlardan tashkil topadi. Ya'ni ko'plik va sifat yoki mavhum va aniq atamalarni birlashtirgan holda yangi ma'nolarni ifodalaydi. Ko'pincha qo'shma otlar ikki otning birlashishidan hosil bo'ladi. Bu holatda birinchi ot asosiy ma'no beradi, ikkinchi ot esa qo'shimcha ravishda izoh beradi. Masalan: 손 (qo'l) + 목 (bilak) = 손목 (bilak), 눈 (ko'z) + 물 (suv) = 눈물 (ko'z yoshi). Ba'zi qo'shma otlar esa fe'l va otning birlashishi natijasida hosil bo'ladi. Va bu qo'shma otlar odatda harakat yoki jarayonni tasvirlaydi. Masalan: 소방 (yong'inni o'chirish) + 차 (mashina) = 소방차 (yong'inni o'chirish mashinasi), 등 (ko'tarilish) + 산 (tog') = 등산 (tog'ga chiqish). Koreys tilida qo'shma otlar juda keng tarqalgan va bu tilning boyligiga katta hissa qo'shadi. Qo'shma otlar ko'pincha muayyan tushunchalarni qisqacha va aniq ifodalash imkonini beradi.

3. Leksik asosning ajralishi (명사형). Koreys tilidagi bir qancha fe'l va sifatlarning ildizi ya'ni asos qismi otdan yasalgan. Shuning uchun ham ko'pincha so'z tarkibidagi -하다 tushirilsa ot hosil bo'ladi. Masalan: 생각하다 (o'ylamoq) fe'lining asosi 생각 (o'y, fikr) ya'ni asli ot turkumidan yasalgan. Shu usulda yasalgan otlarga: 생각하다, 사랑하다, 공부하다, 조용하다, 깨끗하다, 피곤하다, 건강하다... va hakazo bir qancha fe'l va sifatlarni misol tariqasida keltirishimiz mumkin.

4. Koreys tilidagi otlarning yasalishi haqida gap ketganda, xitoy iyerogliflariga asoslangan so'zlarni ham keltirib o'tish juda muhim. Bu usul orqali yasalgan otlarning aksariyati ikki yoki undan ortiq iyerogliflarning birikishidan hosil bo'ladi. Masalan: 학교 (Hak-gyo) – maktab (bilim + bino); 학생 (Hak-seng) – talaba (bilim + tug'ilgan/shaxs); 학자 (Hak-ja) – olim (bilim + kishi). Shuningdek 등산 (tog'ga chiqish) so'zi aslida qo'shma so'z bo'lishi bilan birga, xitoy iyerogliflari asosida yasalgan. Bunday usulda yasalgan so'zlar koreys tili lug'at boyligining ko'p qismini tashkil qiladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, koreys tili morfologiyasida otlar nafaqat miqdor jihatidan, balki so'z yasash imkoniyatlari nuqtayi nazaridan ham markaziy o'rinni egallaydi. Maqolada ko'rib chiqilganidek, koreys tili otlari o'zbek tili bilan o'xshash (mustaqil va tobe otlar) hamda o'ziga xos (hurmat darajalari, affiksatsiya xususiyatlari) jihatlarga ega. Otlarning yasalishida affiksatsiya, kompozitsiya va leksik asosning ajralishi kabi usullarning faolligi koreys tilining agglyutinativ tabiatini yana bir bor tasdiqlaydi. Ayniqsa, mavhum va narsa otlarining grammatik farqlanishi, shuningdek, tobe otlarning (의존명사) gapdagi roli koreys tili strukturasi tushunishda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. <https://api.ziyonet.uz/uploads/books/48880/55c05d1f2db19.pdf> ;
2. <https://soff.uz/product/taqdimotlar-ingliz-tili-koreys-tilida-otlar-asosiy-tushunchalar-va-turlari>;
3. <https://top-conferences.us/index.php/ICLLT/article/view/1191/977>;
4. file:///C:/Users/User/Downloads/Temurova+Ruxshona+Yahyoyevna.pdf ;
5. Hojiyev A. O'zbek morfologiyasi, morfemikasi va so'z yasalishining nazariy masalalari.-Toshkent: Fan, 2010;
6. Naver Korean-English Dictionary. <https://dict.naver.com/term/>;
7. Koreys tili grammatikasi (한국어 문법, Seoul National University Press, 2017).